

## ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK QARASHLARI: MILLIY O'ZLIKNI TARBIYA ORQALI UYG'OTISH YO'LI

**Turayeva Mavjuda Abduvasiyevna**

*Qashqadaryo Viloyati, Shahrisabz Tumani 32-Maktab  
Boshlang'ich Sinf Òqituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Avloniy asarlarining ta'lif jarayoni boshqaruvi va zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Ushbu bebaho asarlarning bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi sabablari haqida ham to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Avloniy, ta'lif, ta'lif boshqaruvi, zamonaviy pedagog, kadrlar tayyorlash.

**Abstract.** This article will talk about the importance of the works of Abdullah Avlani in the management of the educational process and the training of modern pedagogical personnel. The reasons for the lack of relevance of these priceless works are also mentioned today.

**Keywords:** Abdullah Avlani, Education, Educational Management, modern educator, training of personnel.

**Аннотация.** В этой статье рассказывается о значении работ Абдуллы Авлани в управлении образовательным процессом и подготовке современных педагогических кадров. Также будет рассказано о причинах, по которым эти бесценные произведения не утратили своей актуальности и сегодня.

**Ключевые слова:** Абдулла Авлани, образование, управление образованием, современный педагог, обучение.

### 1. Abdulla Avloniy hayoti va ma'rifatparvarlik faoliyati

Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkentda tug'ilgan. Oиласидаги моддијиетишмовчиликлар сабабли болалигидан сувоқчилик, г'исht quyish, pechkachilik, binokorlik, duradgorlik каби касблар билан shug'ullangan. Bularning ortidan „Imoratchi usta“ degan nom oladi. U tarjimai holida bu haqida shunday yozgan: "12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim. 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor bo'lib ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda „Tarjumon“ gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim". O'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qigan (1885—1895). Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ulland. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib borgan U o'z davrining ilg'or ziyyolilaridan biri sifatida jadid maktablarini tashkil etdi. Avloniy ilg'or Yevropa tajribasi asosida yangi usuldagagi maktablarda ta'lif berishni yo'lga qo'ydi. XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy

madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi. Abdulla Avloniy „Qobil“, „Shuhrat“, „Hijron“, „Avloniy“, „Surayyo“, „Abulfayz“, „Indamas“ taxalluslari bilan ijod qilgan.

Abdulla Avloniy yoshligidan maktab ochish, darslik yozish, xalqni ma'rifatli qilish ishlariga qiziqib, hayotining asosiy maqsadini ta'lim-tarbiyanı rivojlantirish deb bilgan. U Toshkentda birlinchi yangi usuldagi maktablardan birini tashkil etib, dars bera boshladi. Bu maktablarda bolalarga faqatgina o'qish-yozish emas, balki axloqiy tarbiya, milliy o'zlik, vatanga muhabbat kabi g'oyalar singdirilgan. Avloniy o'qituvchilikni eng sharaflı va mas'uliyatli kasb deb hisoblagan. Uning fikricha, muallim – jamiyatni o'zgartirishga qodir kuchdir. Shu sababli ham u "muallimlar muallimi" unvoniga munosib bo'lgan. Avloniy o'zining ma'rifatparvarlik g'oyalarini nafaqat ta'lim orqali, balki adabiyot, publisistika va teatr san'ati vositasida ham targ'ib qilgan. U "Turon", "Shuhrat", "Osiyo" kabi gazetalarda maqolalar yozib, xalqni yangicha tafakkurga chorlagan. Uning yozgan she'r va hikoyalari, ayniqsa "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" kabi darsliklari xalqni axloqiy, ma'naviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan. Avloniy bu asarlarida zamonaviy pedagogik tamoyillarni ilgari surib, bolalarning yoshiga, tushunchasiga mos ravishda, o'ziga xos uslubda ta'lim bergan. Ayniqsa, "Turkiy guliston yoxud axloq" asari o'zbek pedagogik fikr tarixida ilk axloqiy risolalardan biri bo'lib, u bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Avloniy teatrni ham ma'rifat va tarbiya vositasi deb bilgan. U 1913-yilda "Turon" teatr jamoasini tashkil etib, sahna orqali xalqni ilmga, axloqqa, birlikka chorlovchi asarlar qo'ygan. Bu sahnalashtirilgan asarlar orqali xalq o'zini, o'z muammolarini tanigan, fikr yuritgan va yangicha dunyoqarashni shakllantirgan. Teatr orqali ma'naviy uyg'onishga intilish bu davr uchun yangilik edi va bunda Avloniyning hissasi beqiyosdir. Shuningdek, Avloniy o'zining har bir faoliyatida xalq manfaatini, millat kelajagini ustuvor deb bilgan. U Turkiston jadidlarining asosiy shiorlari bo'lmish "Millat uyg'onmog'i kerak", "Ilm – najot kalitidir", "Ma'rifat – najot yo'lidir" degan fikrlarni hayotga tatbiq etgan. U xalqni milliy o'zlikka, o'z ona tilini sevishga, madaniyatini qadrlashga, zamonaviy ilm-fan egallahashga undagan. Shu sababli ham Abdulla Avloniy nafaqat o'z zamonasining ziyyolisi, balki xalq o'rtasida keng e'tibor qozongan chinakam ma'rifatparvar bo'lgan.

## 2. Avloniy pedagogik qarashlarining asosiy tamoyillari

Avloniy tarbiya masalasiga katta e'tibor qaratgan. U tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilgan va shunday degan:

### "Tarbiyasiz millat – yo'qolishga mahkum millatdir."

Uning fikricha, ta'lim va tarbiya har tomonlama barkamol insonni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Avloniy ta'limni faqat bilim emas, balki axloqiy va estetik tarbiyaning ham asosiy manbasi sifatida ko'radi.

Abdulla Avloniy o'z davrining ilg'or pedagoglaridan biri bo'lib, o'zbek pedagogik tafakkurining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Uning ta'lim-tarbiya borasidagi fikrlari o'z zamonasi uchun yangicha qarashlar bo'lishi bilan birga, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Avloniy pedagogik qarashlarida eng avvalo, bolani komil inson

sifatida tarbiyalash g‘oyasi asosiy o‘rinda turadi. U faqatgina bilim berish bilan cheklanmay, yosh avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol toptirishni ko‘zlagan. Avloniy o‘qituvchilikni eng sharaflı va mas’uliyatlı kasb deb hisoblagan. Uning fikricha, muallim nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning qalbini, tafakkurini va ruhiyatini shakllantiruvchi ma’naviy yetakchidir. Shu boisdan ham u o‘qituvchilarning ilmiy saviyasi, axloqiy pokligi va jamiyatdagi o‘rniga alohida e’tibor bergen. Avloniy uchun o‘qituvchi doimo izlanishda bo‘lishi, o‘z ustida ishlashi, yangilikka intilishi kerak. U o‘z asarlarida bu fikrni shunday ifodalaydi: “Muallim – xalq ko‘zguvidir. U qanday bo‘lsa, jamiyat ham shunga o‘xshar.” Avloniyning pedagogik qarashlarida axloqiy tarbiya masalasi alohida o‘rin tutadi. U tarbiyani ta’limdan ustun qo‘yadi va insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi eng muhim omil sifatida axloqni ko‘radi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida u yoshlarga rostgo‘ylik, halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, ota-onani e’zozlash, vatanni sevish kabi insoniy fazilatlarni targ‘ib qiladi. Uning nazarida, bilimli, lekin axloqsiz inson jamiyat uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Shu bois, har qanday ta’lim jarayonida axloqiy tarbiya asosiy yo‘nalish bo‘lishi lozim, deb hisoblaydi. Yana bir muhim tamoyil – milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasidir. Avloniy yoshlarni milliy o‘zlikni anglashga, o‘z tilini, tarixini, dinini, madaniyatini sevishga, qadrlashga undagan. U o‘z darsliklarida xalq og‘zaki ijodidan, tarixiy shaxslar hayotidan namunalar keltirib, o‘quvchilar qalbida milliy iftixon hissini uyg‘otishga intilgan. Vatan, til, millat, ota-onaga hurmat singari tushunchalar uning pedagogik konsepsiyasida markaziy o‘rin tutadi. Avloniyning pedagogik qarashlari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasiga tayangan. Uningcha, har bir bola o‘ziga xos qobiliyat, dunyoqarash, did va xulq-atvorga ega bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayoni aynan shu individual xususiyatlarni e’tiborga olgan holda olib borilishi zarur. Bu g‘oya hozirgi pedagogika nazariyasida “insonparvar ta’lim” tamoyili deb yuritiladi. Umuman olganda, Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarida quyidagi asosiy fikrlarni ilgari suradi: ta’lim tarbiyasiz bo‘lmasligi lozim; axloq – insonni inson qiluvchi omildir; muallim – jamiyat ko‘zgusi va islohotchisi; milliy g‘urur – yosh avlodni yetuk shaxs etib tarbiyalashning asosi; ta’lim uslublari esa zamon ruhiga mos bo‘lishi kerak. Bu fikrlar o‘z davri uchun juda ilg‘or bo‘lib, hozirgi ta’lim tizimi uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **3. “Turkiy guliston yoxud axloq” – pedagogik meros sifatida**

Bu asar o‘zbek tilida yozilgan ilk axloqiy-pedagogik qo‘llanmalardan biridir. Unda bolalarga axloqiy, insoniy fazilatlarni singdirish, milliy g‘urur, vatanparvarlik, halollik kabi qadriyatlarni tarbiyalash asosiy o‘rin egallaydi. Avloniy bu asar orqali o‘qituvchilar, ota-onalar va tarbiyachilar uchun yo‘riqnomaliga sifatida harakat qilgan. Abdulla Avloniy — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan o‘zbek milliy madaniyatining yirik namoyandasini, jadidchilik harakatining fidoyi vakili, pedagog, adib va ma’rifatparvar arbobdir. U Turkistondagi madaniy uyg‘onish jarayonida milliy-ma’rifiy g‘oyalarni ilgari surib, zamonaviy o‘zbek pedagogikasining asoschilaridan biriga aylangan. Avloniy yoshlarni ilm-ma’rifatga chorlab, milliy maktab va darsliklar yaratilishida muhim rol

o‘ynagan. Uning asarlari bugungi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. "Topar ilm ila odam o‘g‘li kamol, yeturmas kamola jamol ila mol, Kerak o‘rtanur ilm uchun sham’dek tanimoq xudoni ilmsiz maqol..." Abdulla Avloniy yoshlarni ilmgaga da’vat etar ekan, uni inson kamoloti uchun suv va havodek zarur ne’mat deb biladi. Unga ko‘ra, ilm – insonning ruhiy kamolotiga xizmat qiluvchi asosiy vosita bo‘lib, uni egallash yo‘lida shamdek o‘rtanishga ham tayyor bo‘lish kerak. Ilmsizlik esa, Avloniy nazarida, nafaqat taraqqiyotga to‘siq, balki jaholatning ildizidir. Bugungi kunda ham bu fikr o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini sharqona tarbiyaning noyob qo‘llanmasi deb ta’kidlab, uning asriy qadriyatlar va milliy ma’naviyatni tiklashdagi rolini e’tirof etgan. "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Tarixi anbiyo" kabi asarlar esa yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Avloniy, shuningdek, o‘zbek teatr san’atining rivojida ham muhim rol o‘ynagan. Uning dramalari orqali o‘sha davr ma’naviy muhitini, milliy uyg‘onish ruhini chuqur anglash mumkin. 1920-yillarda savodsizlikni bartaraf etish, ayollar ta’limi va o‘qituvchilar tayyorlash yo‘lida faol ish olib borgan. 1923–1934 yillarda esa bir qator muassasalarda – ayollar bilim yurti, Toshkent harbiy maktabi va O‘rta Osiyo universitetida pedagoglik qilgan. U 1933-yilda 7-sinf uchun "Adabiyot xrestomatiyasi"ni tuzgan. Avloniy "Hijron", "Nabil", "Shuhrat" kabi taxalluslar bilan 4000 dan ortiq misra she’rlar, tanqidiy maqolalar yozib, o‘zbek pedagogik fikrining shakllanishida chuqur iz qoldirgan. Abdulla Avloniyning boy pedagogik merosi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Adabiyot", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Uchinchi muallim", "Hisob", "Tarixi anbiyo" va "Maktab jug‘rofiyasi" kabi darsliklari, shuningdek "Pinak", "Advokatlik osonmi?", "Biz va siz" kabi dramalari Turkiston o‘lkasining madaniy-ma’rifiy hayotida keng tarqalgan. Bu asarlarning ayrimlari bir necha bor nashr etilgan bo‘lsa-da, ba’zilari qo‘lyozma holida saqlanib qolgan. Avloniyning darsliklaridagi badiiy matnlar asosida oliy ta’lim muassasalarida axloqiy-ma’naviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish bugungi kunda ham dolzarbdir. XIX asrda Turkistonda ta’lim asosan diniy bilimlar bilan cheklangan bo‘lsa, Avloniy yangi usul maktablari orqali dunyoviy fanlarga asoslangan, milliy va mintaqaviy xususiyatlarga mos ta’lim tizimini yaratdi. U sinf-dars tizimi asosida o‘qitishni joriy etib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, insoniy qadriyatlarni e’zozlash va milliy ongni shakllantirishga katta e’tibor qaratdi. Bu maktablar mustabid tuzum ta’siridagi rus-tuzem maktablaridan farqli o‘laroq, xalq ruhiyatiga yaqin, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi ta’lim muhitini shakllantirdi. Bu haqida ushbu fikrlarni aytgan edi: "Maktabimda yer, odamlar, tog‘-toshlar, daryo, osmon haqida suhabatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo‘lding deb maktabimni yopdilar." Bundan ko‘rinib turibdiki, rus ma’murlari bu jadid

maktabida tarbiyalanayotgan ta'lim oluvchilari istiqbolidan cho'chiganlar va turli bahonalarni va'j qilib maktabni yopish siyosatini amalga oshirib, yopganlar. Ammo bunday qarshilik harakatlari Avloniyi o'z yo'lidan qaytara olmadi va o'z pozitsiyasida sobit turdi, albatta! Keyinchalik Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfdan iborat maktab ochdi. "Maktabda bolalarga jo'g'rofiya, tarix, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlar bilan birga ona tili va adabiyot fanlaridan bilim beradi". Abdulla Avloniy o'qitish jarayonida bolalarning bilimni oson o'zlashtirishi va ta'limga qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi samarali metodlarni ishlab chiqishga intilgan. Aynan shu maqsadda u savod o'rgatish uchun yaratilgan "Birinchi muallim" darsligining mantiqiy davomi sifatida "Ikkinchi muallim" kitobini nashr ettirgan. Mazkur kitobni yaratishda Avloniy ilgari foydalanilgan darsliklardan iqtiboslar keltirgan holda o'z metodikasini boyitgan. Bu borada u shunday yozadi: "Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning 'Muallimi avval'imizdan ham olib, tajriba qilib, o'qutub ko'rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning bir ta'mimazasi bordur, bu ta'm esa tajriba sohiblarini kashfu ma'lum o'lur." O'zbek mentalitetiga xos an'analardan biri yoshlarda rostgo'ylik fazilatini tarbiyalashga juda katta e'tibor qaratganlar. Abdulla Avloniyning pedagogik ijodiy me'rosida to'g'ri so'zlash, rost gapirish haqidagi she'r va hikoyalar juda ko'p o'rin egallagan bo'lib, "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi "Haqqoniyat", "Kizb" boblari, bolalarga atab yozilgan "Yolg'onchi cho'pon" she'ri bunga yaqqol misoldir. Abdulla Avloniy haqqoniyatga, to'g'ri so'zlashga quyidagicha ta'rif beradi: "Haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilur. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir". Avloniyning fikricha, haqqoniyat ikki turga bo'linadi: ishda haqqoniyat, ishda to'g'rilik hamda so'zda to'g'rilik. Aql egalari, vijdon sohiblari har doim ko'rgan va bilganlarini, haqiqatni va to'g'risini so'zlaydilar. Ishda to'g'rilik birovning nafsiiga, moliga xiyonat qilmaslikdir. Bugungi kunda ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Avloniy merosi o'quv-tarbiya jarayonida ma'naviyatni shakllantirish, yosh avlodni Vatanga sadoqat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Abdulla Avloniy 1927-yilda "Mehnat qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. 1930-yilda esa "O'zbekiston xalq maorifi zarbdori" faxriy unvoni berildi. Hozirda mustaqil O'zbekistonimizda Abdulla Avloniy nomida bir qator maktablar mavjud. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bolalar adabiyoti bo'yicha uning nomida mukofot ta'sis ettirgan. Toshkent ko'chalaridan biri, Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish markazi va mahallalardan biriga uning nomi berilgan. Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish markazida Abdulla Avloniy muzeyi tashkil qilingan. Abdulla Avloniy atoqli pedagog, o'qituvchi sifatida butun umrini ma'rifatga bag'ishladi. Uning pedagogik

qarashlarida Vatanga bo'lgan muhabbat, odob-axloq, tarbiya, ma'rifat, inson kamoli jamiyat rivoji uchun xizmat qilish yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari juda katta ahamiyatga molikdir. Ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan noyob bu asar har tomonlama yetuk, sog'lom fikrli kelajak avlod va zamonaviy pedagoglarni tarbiyalashga xizmat qildi. Bu asarda mutafakkir vatanparvarlik, ona tiliga muhabbat, do'stlik, vijdoniylik, aql, jaholat, g'azab kabi xislat va illatlar haqida fikr yuritadi va xulosalar chiqaradi. Abdulla Avloniy ushbu asarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi. Ushbu asar zamonaviy pedagoglar tayyorlashga, darslik, qo'llanmalar yaratilishiga asos bo'ldi. Uning pedagogika, tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Yoshlarga ma'naviyatning ma'no-mazmunini, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini tushintirishga, ruhiy-ma'naviy oziq berish, dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktablarda ham o'quvchilarning tarbiyasini yaxshilashga, ularni namunali xulqqa, axloqiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltiruvchi turli anjumanlar, davra suhbatlari, babs-munozaralar, uchrashuvlar uyuştirish, ma'naviy tarbiyaning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar, adabiyotlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash kerak. O'zbek mentalitetiga xos an'analardan biri yoshlarda rostgo'ylik fazilatini tarbiyalashga juda katta e'tibor qaratganlar. Abdulla Avloniyning pedagogik ijodiy me'rosida to'g'ri so'zlash, rost gapirish haqidagi she'r va hikoyalar juda ko'p o'rin egallagan bo'lib, "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi "Haqqoniyat", "Kizb" boblari, bolalarga atab yozilgan "Yolg'onchi cho'pon" she'reni bunga yaqqol misoldir. Abdulla Avloniy haqqoniyatga, to'g'ri so'zlashga quyidagicha ta'rif beradi: "Haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilar. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir". Avloniyning fikricha, haqqoniyat ikki turga bo'linadi: ishda haqqoniyat, ishda to'g'rilik hamda so'zda to'g'rilik. Aql egalari, vijdon sohiblari har doim ko'rgan va bilganlarini, haqiqatni va to'g'risini so'zlaydilar. Ishda to'g'rilik birovning nafsiga, moliga xiyonat qilmaslikdir. Xulosa qilib aytganda, yoshlarni yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalash barkamol avlodni shakllantirishdagi muammolarni bartaraf etishi mumkin.

Xulosa: Abdulla Avloniy o'zining pedagogik qarashlari, amaliy faoliyati va ilmiy merosi bilan o'zbek ta'limining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning g'oyalari hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Avloniydan qolgan ibratli fikr va tajribalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish – biz pedagoglarning asosiy vazifasidir. Xulosa qilib aytganda, ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida keng mushohada yuritadi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy

merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Shavkat Mirziyoyevning Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 24 yilligiga bagishlangan marosimdagi maruzasi. 08 dekabr 2016.
- 2.A.Avloniy.Toshkent tonggi.-T.: G.Gulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti,1979, 211-212 – betlar.
- 3.Qosimov B. (2002). Milliy uyg'onish. T.: "Ma'naviyat", – B. 400.
4. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va boshqalar. (2004). Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T.: "Ma'naviyat", – B. 464.
5. A.Boboxonov, M Mahsumov. Abdulla Avloniyning pedagogik faoiiyati va ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlari. -T.: «0'qituvchi», 1966,43-bet.